


XI. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda) (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan
(birlikda)

Faoliyat ko'rsatayotgan
(birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)



Hududlar kesimida


Qarshi sh	5827
Qarshi	2142
Yakkabog'	2022
Kitob	2017
Koson	1900
Qamashi	1739
Shahrisabz sh	1643
Chiroqchi	1525
Shahrisabz	1468
G'uzor	1400
Nishon	1362
Kasbi	1314
Dehqonobod	1185
Ko'kdala	1067
Mirishkor	1023
Muborak	969

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil 1- aprel holatiga 28 603 tani tashkil etdi, ulardan 23 500 tasi tadbirkorlik subyektlari. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 31,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,2 foiz, sanoat – 9,8 foiz, qurilish – 6,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Qarshi shahrida – 20,4 foiz, tumanlardan Qarshi – 7,5 foiz, Yakkabog' – 7,1 foiz, Kitob – 7,1 foiz va Kosonda – 6,6 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2025- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida

Qarshi sh	209
Ko'kdala	140
Qarshi	118
Yakkabog'	96
Koson	86
Dehqonobod	83
Kitob	81
G'uzor	74
Qamashi	73
Kasbi	69
Chiroqchi	67
Shahrisabz sh	67
Nishon	66
Shahrisabz	65
Muborak	59
Mirishkor	58


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2025- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 1 411 tani tashkil etdi. Ularni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qaralganda savdo – 428 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 268 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 235 ta, sanoat – 146 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 84 ta, qurilish – 49 ta, tashish va saqlash – 31 ta, axborot va aloqa – 26 ta, boshqa turlar – 144 tani tashkil etdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- aprel holatiga 23 500 tani tashkil etdi, ulardan 23 300 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 17,2 foiz, sanoat – 11,9 foiz, qurilish – 8,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,7 foiz, tashish va saqlash – 3,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,5 foiz, boshqa turlari – 9,9 foiz


Hududlar kesimida

Qarshi sh	4 936	Shahrisabz	1 150
Qarshi	1 819	Nishon	1 132
Yakkabog'	1 667	G'uzor	1 128
Kitob	1 662	Kasbi	1 085
Koson	1 532	Dehqonobod	914
Qamashi	1 423	Ko'kdala	827
Shahrisabz sh	1 405	Mirishkor	812
Chiroqchi	1 204	Muborak	804


Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat



Qurilish




Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2025- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 147 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 145 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Qarshi sh	193	3,9 %	Qamashi	60	4,2 %
Ko'kdala	126	15,2 %	G'uzor	57	5,1 %
Qarshi	91	5,0 %	Chiroqchi	52	4,3 %
Yakkabog'	76	4,6 %	Kasbi	51	4,7 %
Shahrisabz sh	65	4,6 %	Muborak	49	6,1 %
Koson	63	4,1 %	Nishon	49	4,3 %
Dehqonobod	61	6,7 %	Mirishkor	47	5,8 %
Kitob	61	3,7 %	Shahrisabz	46	4,0 %

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Qarshi shahrida (20,8 foiz), Qarshi (7,7 foiz), Kitob (7,1 foiz), Yakkabog' (7,1 foiz), Koson (6,5 foiz) va Qamashi (6,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Qarshi sh	4 856	Shahrisabz	1 138
Qarshi	1 804	Nishon	1 128
Yakkabog'	1 661	G'uzor	1 115
Kitob	1 654	Kasbi	1 080
Koson	1 517	Dehqonobod	909
Qamashi	1 418	Ko'kdala	825
Shahrisabz sh	1 396	Mirishkor	810
Chiroqchi	1 199	Muborak	790


Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumot

2025- yil yanvar-mart holatiga ko'ra, birlikda)


Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Hududlar kesimida


Qarshi sh	192	4,0 %	Qamashi	60	4,2 %
Ko'kdala	126	15,3 %	G'uzor	57	5,1 %
Qarshi	91	5,0 %	Chiroqchi	52	4,3 %
Yakkabog'	76	4,6 %	Kasbi	51	4,7 %
Shahrisabz sh	65	4,7 %	Muborak	49	6,2 %
Koson	63	4,2 %	Nishon	48	4,3 %
Dehqonobod	61	6,7 %	Mirishkor	47	5,8 %
Kitob	61	3,7 %	Shahrisabz	46	4,0 %

Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyati bo'yicha ma'lumot


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qamashi	500
Nishon	412
Kasbi	362
Yakkabog'	345
Kitob	293
Mirishkor	292
Qarshi	276
Shahrisabz	272
Koson	264
Dehqonobod	248
Ko'kdala	211
Muborak	150
Qarshi sh	136
Chiroqchi	133
G'uzor	130
Shahrisabz sh	41



Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qamashi (12,3 foiz), Nishon (10,1 foiz) va Kasbi (8,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.




Sanoat yoʻnalishida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

2025- yil 1- aprel holatiga koʻra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	509
Kitob	349
Yakkabogʻ	265
Shahrisabz sh	224
Shahrisabz	209
Qarshi	202
Gʻuzor	179
Koson	141
Chiroqchi	127
Qamashi	124
Kasbi	103
Koʻkdala	95
Muborak	78
Nishon	71
Mirishkor	68
Dehqonobod	66



Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega boʻlgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 9,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 88,9 foizini ishlab chiqarish sanoati, 8,7 foizini togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,6 foizini suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilish va 0,8 foizini elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar


2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	598
Qarshi	220
Koson	177
Yakkabog'	107
Shahrisabz sh	104
Chiroqchi	98
Kasbi	87
Muborak	85
Qamashi	73
Kitob	69
Shahrisabz	67
G'uzor	59
Nishon	54
Dehqonobod	52
Ko'kdala	47
Mirishkor	40



Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki: - binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,3 foiz ulushni tashkil etdi; - ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 21,1 foiz ulushni tashkil etdi. - fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 22,6 foiz ulushni tashkil etdi;



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Qarshi sh	1 981
Qarshi	709
Koson	667
Chiroqchi	595
Yakkabog'	581
Shahrisabz sh	560
Kitob	548
G'uzor	494
Qamashi	462
Nishon	401
Dehqonobod	382
Kasbi	377
Shahrisabz	357
Ko'kdala	343
Muborak	332
Mirishkor	295



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,4 foizi yoki 9 033 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:


- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 68,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 22,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,9 foiz ulushni tashkil etdi.



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	398
Kitob	166
Shahrisabz sh	142
Yakkabog'	134
Shahrisabz	123
Qarshi	91
Chiroqchi	81
G'uzor	76
Qamashi	73
Dehqonobod	58
Koson	51
Nishon	49
Ko'kdala	49
Muborak	42
Mirishkor	27
Kasbi	27



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- aprel holatiga 1 587 taga yetib, ularning 1 573 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 7,3 foiz ulushini tashkil etdi;


restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,7 foiz ulushini tashkil etdi.



Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida


Qarshi sh	136
Chiroqchi	41
Qarshi	37
G'uzor	29
Shahrisabz sh	23
Koson	17
Kitob	16
Kasbi	16
Yakkabog'	14
Nishon	11
Qamashi	8
Ko'kdala	8
Dehqonobod	7
Shahrisabz	4
Mirishkor	3
Muborak	3



2025-yil 1-aprel holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxonalar va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 66,0 foizini;

Axborot xizmatlari va nashirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 30,5 foizini;


Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,5 foizni tashkil etdi.



Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar toʻgʻrisida maʼlumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	246
Yakkabogʻ	88
Kitob	83
Shahrisabz sh	79
Koson	70
Qarshi	63
Shahrisabz	52
Gʻuzor	45
Qamashi	45
Chiroqchi	43
Nishon	38
Kasbi	34
Dehqonobod	32
Mirishkor	28
Muborak	27
Koʻkdala	18




Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 649 ta yoki 65,5 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri kelgan.

Yoʻnalishlar boʻyicha tahlil shuni koʻrsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 97,1 foizi sogʻliqni saqlash yoʻnalishiga toʻgʻri keladi; yashash uchun joy bilan taʼminlangan holda parvarishlash yoʻnalishidagi korxonalar sonining 1,5 foizni tashkil etdi;


yashash uchun joy bilan taʼminlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish yoʻnalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,4 foizini tashkil etdi.



Tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Hududlar kesimida

Qarshi sh	263
Qarshi	79
Shahrisabz sh	53
Koson	48
Yakkabog'	48
Kitob	43
G'uzor	42
Mirishkor	35
Kasbi	34
Shahrisabz	32
Chiroqchi	18
Dehqonobod	17
Nishon	15
Ko'kdala	14
Qamashi	11
Muborak	9




2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 80,7 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 16,3 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,0 foizni tashkil etgan.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:


- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Savdo



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish




Boshqa turlar

Yetakchi o'rinni 33 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 14,1 foiz), Turkiya (ulushi 10,7 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 6,0 foiz) va Qozog'iston (ulushi 3,4 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Qarshi sh	35	Kasbi	7
Muborak	16	Dehqonobod	6
G'uzor	12	Qamashi	6
Koson	10	Yakkabog'	6
Kitob	10	Mirishkor	5
Nishon	10	Shahrisabz	5
Chiroqchi	9	Shahrisabz sh	3
Qarshi	7	Ko'kdala	2

Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 77 tasi qo'shma korxonalar, 72 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

qo'shma korxonalar		xorijiy korxonalar
8	G'uzor	4
3	Dehqonobod	3
3	Qamashi	3
4	Qarshi	3
7	Koson	3
3	Kitob	7
3	Mirishkor	2
5	Muborak	11
3	Nishon	7
1	Kasbi	6
-	Ko'kdala	2
7	Chiroqchi	2
4	Shahrisabz	1
3	Yakkabog'	3
22	Qarshi sh.	13
1	Shahrisabz sh.	2

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.